

INNOVATIVE APPROACHES OF LANGUAGE TEACHING IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Navbahor Nasullayeva

Uzbekistan State World Languages University
navbahornasullayeva@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6708-9728>

Sabina Ibrohimova

Uzbekistan State World Languages University
ibrohimovas707@gmail.com

Scientific supervisor: **E'zoza Rahmatova-Teacher**

Abstract. This article examines innovative approaches to language teaching in the context of globalization, emphasizing the shift from traditional teacher-centered methods to more interactive, learner-centered practices. It highlights how globalization demands higher communicative competence and intercultural awareness, which modern methodologies aim to develop. The study explores several key approaches, including intercultural communication, data-driven learning (DDL), content-based learning (CBL), collaborative learning (CLL), personalized learning, and technology-enhanced language learning. Each approach is described in terms of its core principles, benefits, and potential limitations, supported by relevant examples from educational practice. The article also analyzes how these methods contribute to improving learners' motivation, autonomy, and practical language use in real-life situations. The findings suggest that innovative approaches not only increase the effectiveness of language acquisition but also make the learning process more engaging, flexible, and relevant to global demands. Ultimately, integrating such methods is essential for preparing learners to successfully communicate and function in an increasingly interconnected world.

Keywords: Globalization, language teaching, innovative approaches, intercultural communication, data-driven learning, content-based instruction, collaborative learning, personalized learning, technology-enhanced learning, language acquisition.

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida til o'qitishning innovatsion yondashuvlari ko'rib chiqiladi, bunda an'anaviy, o'qituvchi markazli usullardan interaktiv va o'quvchi markazli amaliyotlarga o'tish jarayoni asosiy e'tiborda bo'ladi. Globallashuv yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya va madaniyatlararo xabardorlikni talab qilishi, bu esa zamonaviy metodlar orqali shakllantirilishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda madaniyatlararo kommunikatsiya, ma'lumotlarga asoslangan o'qitish (DDL), predmet va til integratsiyalashgan o'qitish (CBL), hamkorlikda o'qitish (CLL), shaxsiylashtirilgan ta'lim va texnologiyalar asosida o'qitish kabi yondashuvlar tahlil qilinadi. Har bir yondashuv uning asosiy tamoyillari, afzalliklari va kamchiliklari bilan birga amaliy misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, ularning o'quvchilar motivatsiyasi, mustaqil o'rganish va real hayotda til qo'llash ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinadi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar ta'limni yanada samarali, moslashuvchan va global talablariga javob beradigan darajaga olib chiqadi hamda o'quvchilarning real vaziyatlarda tilni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. tashqari, ushbu yondashuvlar o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi, til o'rganish jarayonini yanada barqaror qiladi hamda ularning akademik va kasbiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Kalit soʻzlar: Globallashuv, til oʻqitish, innovatsion yondashuvlar, madaniyatlararo muloqot, maʼlumotlarga asoslangan oʻrganish, mazmun asosidagi oʻqitish, hamkorlikda oʻrganish, shaxsiylashtirilgan taʼlim, texnologiya asosidagi oʻrganish, tilni egallash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные подходы к обучению языкам в условиях глобализации, с акцентом на переход от традиционных, ориентированных на преподавателя методов к более интерактивным и ориентированным на обучаемого практикам. Подчеркивается, что глобализация требует более высокого уровня коммуникативной компетенции и межкультурной осведомленности, которые формируются с помощью современных методик. В исследовании анализируются такие подходы, как межкультурная коммуникация, обучение на основе данных (DDL), предметно-языковое обучение (CBL), коллаборативное обучение (CLL), персонализированное обучение и обучение с использованием технологий. Каждый из подходов рассматривается с точки зрения его основных принципов, преимуществ и возможных недостатков, с приведением практических примеров. Также анализируется их влияние на мотивацию обучающихся, развитие автономности и применение языка в реальных ситуациях. Делается вывод о том, что инновационные методы повышают эффективность обучения и делают его более гибким и соответствующим требованиям глобального мира. Кроме того, данные подходы делают учебный процесс более интересным и эффективным, развивают навыки самостоятельного поиска и расширяют возможности учащихся применять язык в реальных жизненных ситуациях.

Ключевые слова: глобализация, обучение языкам, инновационные подходы, межкультурная коммуникация, обучение на основе данных, предметно-ориентированное обучение, совместное обучение, персонализированное обучение, обучение с использованием технологий, овладение языком.

INTRODUCTION

Globallashuv bu hozirgi kundagi zamon talabi. Yer yuzidagi barcha insonlarni yagona tarmoqqa birlashtirish, ularni yagona resursdan foydalanishga olib kirish uchun qilinayotgan harakat. Til mavzusiga yondashadigan boʻlsak, bu ham globallashuvning bir koʻrinishi — til ilmi orqali insonlarni birlashtirish. Globallaashuv muhitida til oʻrganishda anʼanaviy metodlar, strategiyalar ancha oʻzgardi, hozirda bu kam foydalaniladigan manba sifatida qolyapti (Karimova & Kenjayeva, 2025). Ananaviy metodlarga yangicha koʻz bilan qaragan holatda ularni innovative muqobili bilan almashtirish ingliz tilini dunyo miqyosda oʻrganish uchun ancha osonlashtirdi va qiziqarli qildi. Olimlar, yosh tadqiqotchilar tomonidan turli xil metod va strategiyalar yaratildi. Quyidagi innovative approaches shular jumlasidandir (Innovative methods play a crucial role in improving language acquisition (Begmatov, 2026).

METHODS

Intercultural communication – madaniyatlararo insonlar oʻrtasidagi fikr, mulohaza va tushunish jarayonidir. Tushuncha orqali urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarash va xulq-atvordagi tafovutlarni oʻz ichiga olgan holatda maʼlum bir muhit yaratadi. Bu approach 1950-yillarda Edward T. Hall tomonidan tilga olingan. U oʻzining “The Silent Language” kitobida madaniyatlararo muloqot tushunchasini tilga olgan. U turli madaniyatdagi soʻzlarni solishtirgan va farqlarini ochib bergan. Intercultural communication afzalliklari global muhitda taʼlim, ish va sayohat imkoniyatlarini

oshiradi, qolaversa ajnabiy millat vakillari o'rtasida tushunishni osonlashtiradi. Ammo, bir madaniyatdagi streotiplar ikkinchi bir madaniyatda konflikt vaziyatlar keltirib chiqarishi mumkin. Ikki yot madaniyat yangi muhitaga moslashishda "Culture shock" hosil qilishi mumkin (Inamov & Holmatova, 2025).

Keyingi approachlardan biri esa - data-driven language teaching yoki DDL deb ham nomlanadi. Ushbu yondashuv haqida ma'lumot beradigan bo'lsam, bunda til misollar, namunalarni tahlil qilish orqali o'raniladi, ya'ni faqatgina qoidalarga bo'ysunmaydi. 1980-1990 yillarda Tim Johns tomonidan "learner as researcher" tamoyili asosida ilgari surilgan. Batafsil aytganda, o'quvchi qoidani o'qish o'rniga corpus bazadagi ma'lumotdan misollar ko'rib o'rganadi, gaplarni, frazalarni solishtiradi, qoliplarni o'zi yaratadi. Misol uchun "mistake" so'zi oldidan collocation sifatida ishlatilgan "do" yoki "make" qo'yilishini keltirilgan ba'zadan topadi va qabul qiluvchi uchun shu orqali tilni o'rganish ancha osonlashadi.

DDL yondashuv orqali haqiqiy ishlatiladigan tilni o'rganish mumkin, misollarni tahlil qilish orqali o'rganuvchida kitobiy tildan qochgan holda real language ni idrok etadi. Bu kabi holatlar tayyor qoidani berishdan ko'ra ancha murakkabroq sanaladi, boshlang'ich o'rganuvchilarga bu approach orqali boshlash tavsiya berilmaydi.

Yana bir innovative yondashuvlardan biri — Content-Based Language Learning — lingvistikada katta rol o'ynaydi va ko'zga ko'ringan metodlar qatorasiga kiradi. Kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak 1980-yillarda paydo bo'lin, Stephen Krashen tomonidan chuqur isloh qilingan. Bu metodda o'quvchilar tilni ingliz tili darsida emas, boshqa maktab fanlari orqali o'rganadi. Ya'ni hamma fanlar ingliz tilida o'qitiladi. Shu orqali yosh o'rganuvchi har bir sohadagi kerakli lug'atlarni o'rganadi. Ingliz tili-maqсад emas, vosita bo'lib xizmat qiladi. CBL learning ning afzalliklari bisyor, til+bilim o'rganiladi, ko'p paytda akademik iboralar, so'zlar orqali qabul qilinadi. Lekin grammatik e'tibor chetda qolishi mumkin va o'rgatuvchidan ko'p mehnat va malaka talab qiladi. Kerakli ma'lumotlar toppish ham ancha vaqt talab qiladi va il darajasi past bo'lganlar tushunishi qiyin. CLL o'z Ichida uchga bo'linadi: Theme-based instruction- bitta mavzu asosida dars, Sheltered instruction- til o'rganuvchilar uchun moslashtirilgan fan darsi, Adjunct model- til va fan alohida, lekin bir-biriga bog'langan.

Collaborative Language Learning (CLL) – bu metodda til birgalikda ishlash orqali o'rganiladi. Asosiy ma'nosi til ijtimoiy muhitda muloqot qilish orqali o'rganiladi. Lev Vgotsky, David. W. Johnson, va Roger T. Johnson kabi olimlar tomonidan 1970-1980-yillarda tatbiq qilingan. Juftlikda yoki guruhda ishlaydi, fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi, o'rganadi. Guruh ichida o'rganish orqali xatolar boshqa a'zolar tomonidan tuzatiladi, motivatsion ruhda o'rganiladi, va aynan shu orqali ham gapirish ko'nikmasi yaxshiroq rivojlanadi. Tan olish lozimki, keng jamoada shovqin bo'lishi, o'qituvchi hammani nazorat qilolmasligi mumkin ammo til o'rganishda o'zining ustuvorligi bilan ajralib turadi.

Personalized language learning— bu o'quvchining individual qiziqishlari, maqsadlari hamda o'rganish jarayonidagi ehtiyojlariga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuv doirasida o'qituvchi har bir o'quvchining psixologik, kognitiv va didaktik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Xususan, o'qituvchi o'quvchilarning o'rganish tezligi va uslublariga alohida e'tibor qaratadi. Chunki o'rganish jarayoni individual xarakterga ega bo'lib, ayrim o'quvchilar eshitish (audial), boshqalari ko'rish (vizual), yana boshqalari esa amaliy faoliyat (kinestetik) orqali samaraliroq bilim o'zlashtiradi. Shu sababli, ta'lim

mazmuni va metodlari o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda differensiallashtiriladi (Begmatov, 2026; Karimova & Kenjayeva, 2025).

RESULTS

Bundan tashqari, mazkur yondashuvda o'qituvchi nafaqat o'quvchining bilim darajasini, balki uning o'rganish strategiyalari va subyektiv qarashlarini ham hisobga oladi. Har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish modeli mavjud bo'lgani sababli, ularga individual yondashuvni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berib boriladi. Ushbu jarayon odatda o'quvchining ijobiy jihatlarini e'tirof etishdan boshlanib, keyinchalik mavjud kamchiliklar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi. Bu esa o'quvchilarning reflektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilar o'z xatolarini anglab yetadi, ularni tuzatish ustida mustaqil ishlaydi va bilimlarini bosqichma-bosqich mustahkamlab boradi. Shu bilan birga, ularda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi shakllanadi, bu esa ularning umumiy o'quv faoliyat samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning til o'rganishdan ko'zlangan maqsadlari ham turlicha bo'lishi mumkin: akademik (oliy ta'lim muassasalariga kirish), professional (kasbiy rivojlanish), kommunikativ (xalqaro muloqot) yoki ijtimoiy-madaniy (sayohat, madaniyatlararo integratsiya) ehtiyojlar. Shaxsiylashtirilgan yondashuv aynan shu maqsadlarni inobatga olgan holda individual o'quv trajektoriyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, shaxsiylashtirilgan til o'rganish yuqori samaradorlikka ega bo'lgan innovatsion yondashuv bo'lib, individual yondashuv, uzluksiz mulohaza va refleksiya asosida o'quvchilarning til kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, o'z sohasida yetuk mutaxassis sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

DISCUSSION

Technology-enhanced language learning - bu zamonaviy pedagogik yondashuv bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv o'quv jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va o'quvchi markazli qilish imkonini beradi. Mazkur usul doirasida turli raqamli platformalar, internet resurslari hamda multimedia vositalari (video, audio, animatsiya) keng qo'llaniladi. Bunday vositalar o'quvchilarning turli o'rganish uslublariga mos kelib, til materiallarini chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Texnologiya yordamida til o'rganishning muhim afzalliklaridan biri — uning yuqori darajadagi moslashuvchanligi va qulayligidir. O'quvchilar istalgan vaqt va makonda mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa uzluksiz ta'limni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiyani sezilarli darajada kengaytiradi. Xususan, onlayn ta'lim platformalari orqali o'quvchilar turli mamlakatlardagi mutaxassislar bilan bevosita muloqot qilish va bilim almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi o'quvchi xorijiy o'qituvchilar bilan masofaviy tarzda dars olib borishi mumkin. Shuningdek, ko'plab raqamli vositalar avtomatlashtirilgan baholash tizimlariga ega bo'lib, ular o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini tezkor hamda obyektiv tarzda tahlil qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarga darhol fikr-mulohaza

(feedback) olish va o'z bilim darajasini aniqlash imkonini beradi. Yana bir muhim jihat — virtual o'quv muhitining yaratilishidir. Bunday muhit o'quvchilarga nafaqat tilni, balki o'rganilayotgan til egalari madaniyati, an'analari va ijtimoiy hayotini ham o'rganish imkonini beradi. Natijada, til o'rganish jarayoni yanada kompleks va mazmunli tus oladi. Shu bilan birga, mobil ilovalar ham ushbu yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Jumladan, Duolingo va Memrise kabi ilovalar o'quvchilarga leksik birliklarni o'zlashtirish, grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish hamda talaffuzni yaxshilashda samarali yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, texnologiya yordamida til o'rganish — bu innovatsion, samarali va istiqbolli yondashuv bo'lib, u o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. (Karimova & Kenjayeva, 2025).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova, A. A., & Kenjayeva, M. B. (2025). Innovative strategies of language teaching in the context of globalization. *Modern Education and Development*, 21(1), 222–230.
2. Inamov, U., & Holmatova, M. (2025). Communicative language teaching (CLT) approach in language teaching. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(1), 351–353.
3. Begmatov, A. T. (2026). Innovative methods for foreign language teaching. *Shokh Articles Library*.
4. Aliqulova, M., Xasanova, F., & Azimjonovna, Z. (2023). Exploring communicative language teaching as an effective methodology in English language education. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 1006–1010.